




**“TASDIQLAYMAN”  
“Artnova”**

**xalqaro tashkiloti direktori**

  
**B.U. Yuldashev**  
**15-mart 2025-yil**

**Musiqa va san’at yo’nalishidagi iste’dodli yoshlarning  
“IJOD BAHORI” Respublika yosh ijodkorlar tanlovini  
tashkil etish va o’tkazish tartibi to’g’risida**

**N I Z O M**

Mazkur nizom **“ARTNOVA”** Xalqaro tashkiloti tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida” 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining Baxshichilik san’atini, Xoreografiya san’atini, Estrada san’atini, Maqom san’atini, Tasviriy va amaliy san’at turlarini rivojlantirishga oid tegishli qarorlariga asosan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning birinchi yo’nalishi yoshlarni madaniyat va san’atga qiziqishini oshirish ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, yangi iste’dodlarni izlab topish, milliy qo‘shiqchilik, musiqa va san’atimizni keng targ‘ib etish maqsadida tashkil etiladigan **“Ijod bahori”** Respublika yosh ijodkorlar tanlovini (*keyingi o‘rinlarda “tanlov” deb yuritiladi*) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1.1. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tasarrufidagi musiqa va san’at yo’nalishidagi tashkilot va muassasalar jumladan, bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari, maktab-internatlari, barkamol avlod bolalar maktablari hamda umumta’lim maktablari o‘quvchilari, oliy ta’lim muassasalari



talabalari hamda madaniyat markazlarining to'garak qatnashchilari ishtirokida o'tkaziladi.

1.2. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish jarayoni **Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita** – “ARTNOVA” xalqaro tashkiloti (*keyingi o'rinlarda matnda "tashkiliy qo'mita" deb yuritiladi*) tomonidan muvofiqlashtiriladi va boshqariladi.

## **2-bob. Tanlovning maqsadlari**

2.1. Iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularning iste'dodini yuzaga chiqarish.

2.2. Milliy va zamonaviy san'at turlarini rivojlantirish, musiqiy merosni o'rganish va keng targ'ib etishga ko'maklashish.

2.3. Yoshlarni musiqa va san'at turlariga qiziqishini yanada oshirish.

2.4. Yoshlar o'rtasida vatanga muhabbat, ona yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko'maklashish.

2.5. Ishtirokchilarni birlashtirgan ijodiy muhit, hamkorlik va tajriba almashinuvi uchun qulay sharoit yaratish.

## **3-bob. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish**

3.1. Tanlov har yili bir marta an'anaviy (oflayn) tarzda o'tkaziladi. Tanlovning o'tkazilish muddatlari tashkiliy qo'mita tomonidan rasmiy tarzda e'lon qilinadi.

3.2. Zarurat tug'ilganda tanlov nizomiga o'zgartirish kiritish, hujjatlarni qabul qilish va tanlov o'tkazilishi, taqdirlash marosimi kunlarini o'zgartirish tashkiliy qo'mita vakolatida bo'lib, bu haqida tashkilotning rasmiy veb sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali e'lon qilinadi.

3.3. Ishtirokchilar (yoki jamoa) ixtiyoriy tarzda bir yoki bir nechta yo'nalish va nominatsiyalarda ishtirok etishi mumkin. Bunda, har bir ishtirok uchun alohida ro'yxatdan o'tish talab etiladi.

3.4. Belgilangan talablarga rioya qilmagan taqdirda ishtirokchilar hakamlar hay'ati yoki tashkiliy qo'mita tomonidan tanlovdan chetlashtiriladi.

3.5. Tanlovni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar Tashkiliy qo'mita tomonidan tartibga solinadi.



3.6. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish dasturi ishlab chiqilib, tashkiliy guruh tomonidan tayyorlangan takliflar ishtirokchilarga taqdim etiladi. Bunda, tanlov yakuniga qadar Mehmonxona (*yoki yashash joyi*), ovqatlanish, transport xizmatlari va boshqa ko'ngilochar dasturlar ko'zda tutiladi. Ishtirok uchun to'lanadigan mablag' mazkur xizmatlarni o'z ichiga olmaydi. Qo'shimcha xizmatlardan kelishuv asosida foydalanish mumkin bo'lib, ixtiyoriy hisoblanadi (*majburiy emas*).

#### **4-bob. Tanlovda ishtirokchilarning yosh toifalari**

4.1. Tanlovda ishtirokchilar quyidagi yosh toifalari bo'yicha qatnashadi:

1. 6-7 yosh
2. 8-10 yosh
3. 11-13 yosh
4. 14-16 yosh
5. 17-20 yosh
6. 6-20 yosh (*bunda faqat guruh bo'lib ishtirok etish ko'zda tutiladi*)

#### **5-bob. Tanlov yo'nalishlari (Nominatsiya)**

**Birinchi guruh: Cholg'u ijrochiligi** (*yakka ijro, duet, trio, ansambl, katta guruh*)

- a) Xalq cholg'ulari
- b) An'anaviy cholg'u ijrochiligi
- c) Fortepiano, estrada fortepiano, umumiy fortepiano
- d) Damli va zarbli cholg'ular
- e) Torli cholg'ular

**Ikkinchi guruh: Xonandalik** (*yakka ijro, duet, trio, ansambl, katta guruh*)

- f) An'anaviy xonandalik
- g) Estrada xonandalik
- h) Akademik xonandalik

**Uchinchi guruh: Xoreografiya** (*yakka ijro, duet, trio, ansambl, katta guruh*)

- i) Klassik raqs
- j) Milliy raqs
- k) Xalq raqslari
- l) Zamonaviy raqs



**To'rtinchi guruh: Tasviriy va amaliy san'at** (*yakka va jamoaviy*)

- m) Tasviriy san'at (rassomlik, grafika, haykaltaroshlik, miniatyura, mozaika va vitraj, dizayn san'ati)
- n) Amaliy san'at (naqqoshlik, zargarlik, kulolchilik, kashtachilik, o'ymakorlik, gilamdo'zlik, chilangarlik va misgarlik, qo'g'irchoq yasash san'ati)

**Beshinchi guruh: Teatr aktyorligi** (*yakka ijro, duet, trio, ansambl, katta guruh*)

- o) Monolog, masal, hikoya aytish, qo'g'irchoq teatri, etyud va boshqa janrlar

**Oltinchi guruh: Musiqa nazariyasi** (*yakka ishtirok*)

- p) Musiqa nazariyasi, solfedjio, garmoniya, musiqa adabiyoti, musiqa tarixi

**Yettinchi guruh: Folklor ijrochiligi** (*yakka ijro, duet, trio, ansambl, katta guruh*)

- q) Baxchichilik, jirov va oqin
- r) Xalfachilik
- s) Folklor ijrochiligi, xalq qo'shiqchiligi, folklor teatr va an'anaviy xalq o'yinlari va boshqa janrlar

## **6-bob. Ishtirok etish shartlari**

6.1. Ijro uchun quyidagi reglament (ijro davomiyligi)ga rioya qilish talab etiladi:

Birinchi guruh (cholg'u ijrochiligi) – 6 daqiqagacha

Ikkinchi guruh (Xonandalik) – 6 daqiqagacha

Uchinchi guruh (Xoreografiya) – 7 daqiqagacha

To'rtinchi guruh (Tasviriy va amaliy san'at) – 3 soatgacha (*o'zgartirilishi mumkin*)

Beshinchi guruh: (Teatr aktyorligi) – 8 daqiqagacha

Oltinchi guruh: (Musiqa nazariyasi) – 1 soatgacha (*o'zgartirilishi mumkin*)

Yettinchi guruh: (Folklor ijrochiligi) – 8 daqiqagacha

6.2. Birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi, yettinchi guruh ishtirokchilari ijro asarlarini mustaqil tanlaydi. (*Majburiy asar berilmaydi*).

6.3. To'rtinchi guruh (Tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi) ishtirokchilari uchun "ona vatan" mavzusi hamda tanlov o'tkaziladigan hudud (viloyat, shahar) tarixi, moddiy va nomoddiy madaniy merosi, milliy urf-odat va an'analarini tasvirlash bosh mezon hisoblanadi.



6.4. Yuqoridagi reglament qat'iy hisoblanib, unga rioya qilinmagan taqdirda hakamlar hay'ati tomonidan ijro to'xtatilishi mumkin. Shuningdek, baholashda reglamentga rioya qilinmaganligi inobatga olinadi.

6.5. Ishtirokchilar faqat 1 ta asar ijro qiladi, ijro davomiyligidan qat'iy nazar belgilangan reglament ichida ikkinchi asarni ijro qilishiga yo'l qo'yilmaydi. ikki qismli bir butun asarlar bundan mustasno.

6.6. Barcha yo'nalishlar bo'yicha ishtirokchilar tanlovda faqat jonli ijro qilishlari talab etiladi. Xonandalik yo'nalishi ishtirokchilari musiqiy fonogrammadan (minusovka) foydalanishi mumkin. Shuningdek, barcha yo'nalishlarda ishtirokchilar konsertmeysterdan foydalanishi (jalb etishi) ga ruxsat etiladi.

6.7. Tasviriy va amaliy san'at yo'nalishi ishtirokchilarining tanlovgacha bo'lgan vaqtda, oldindan (uyida) bajargan ishlari qabul qilinmaydi. Tanlov jarayonida ajratilgan vaqt davomida yaratilgan ijodiy ish baholanadi. *(Tanlov davomida yaratilgan ijodiy ishlar tashkiliy qo'mitaga topshiriladi, ijodiy ishlar qaytarilmaydi)*

6.8. Tanlovning barcha ishtirokchilari tanlovda qatnashish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar va jihozlarni (konsertmeyster, cholg'ular, bo'yoq, qog'oz, rekvizit, minusovka, maxsus liboslar va boshqalar)o'zlari bilan olib kelishlari talab etiladi. Yuqoridagilar bo'yicha tashkiliy guruh majburiyat olmaydi.

6.9. Ishtirokchilar ro'yxatdan o'tish jarayonida taqdim etgan ma'lumotlarining aniq va to'g'riligiga javobgar hisoblanadi. Agar ma'lumotlar noto'g'ri taqdim etilgan bo'lsa bu ularning tanlovdan chetlashtirilishiga sabab bo'lishi mumkin.

## **7-bob. Hakamlar hay'ati tarkibi**

7.1. Hakamlar hay'ati tarkibi professor-o'qituvchilar oliy toifali pedagoglar, musiqa va san'at sohasining tajribali mutaxassisleri hamda professional ijrochilardan shakllantiriladi.

7.2. Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida hakamlar hay'ati tarkibi oldindan oshkor etilmaydi.

7.3. Hakamlar hay'atiga ta'sir o'tkazishga urunish tanlovdan chetlashtirishga sabab bo'ladi.

7.4. Hakamlar hay'atining qarorlari yakuniy va hal qiluvchi hisoblanib, qayta ko'rib chiqilmaydi.



7.5. Tanlovda Gran-Prini belgilash hakamlar hay'atining tavsiyasi bilan tashkiliy qo'mita tomonidan ko'rib chiqiladi.

## **8-bob. Ishtirokchilarni baholash mezonlari**

8.1. Tanlov ishtirokchilari hakamlar hay'ati tomonidan 100 ballik tizimda quyidagicha baholanadi:

1. 100 ball – **Gran Pri**
2. 90-99 ball – **1-o'rin (birinchi darajali diplom)**
3. 80-89 ball – **2-o'rin (ikkinchi darajali diplom)**
4. 70-79 ball – **3-o'rin (uchinchi darajali diplom)**
5. 1-69-ball diplom

***Izoh:** Gran Pri har bir yo'nalishdan bir nafar ijrochi yoki guruh aniqlanadi. Ya'ni, bir yo'nalishdan ikkita Gran Pri belgilanmaydi. Shuningdek, biror yo'nalishdan Gran Pri sovriniga loyiq ishtirokchi yoki guruh aniqlanmagan taqdirda ushbu yo'nalishga Gran Pri sovrini berilmaydi.*

### **Baholash mezonlari quyidagicha:**

#### **8.2. Cholg'u ijrochiligi yo'nalishida baholash mezonlari (100 ball):**

- a) Ijro texnikasi (ritm, tiniq tovush, notalarni to'g'ri bosish) – 25 ball
- b) Ijro uslubi va musiqiy ifodaviyligi (dinamika, frazalash, ijodiy yondashuv) – 20 ball
- c) Asarning murakkablik darajasi va interpretatsiyasi – 20 ball
- d) Artistizm va sahnaviy madaniyat (sahnada o'zini tutish, sahnaviy chiqish) – 15 ball
- e) Jonli ijro talablari va reglamentga rioya qilish – 10 ball
- f) Asarning original ijro variantlari va innovatsion yondashuv – 10 ball

#### **8.3. Xonandalik yo'nalishida baholash mezonlari (100 ball):**

- a) Vokal mahorati (ovozi kuchi, diapazon, texnika) – 25 ball



- b) Musiqiy va badiiy ifodaviylik (intonatsiya, frazalash, ovozning emotsional ifodasi) – 20 ball
- c) Diksiya va matnni to‘g‘ri talqin qilish – 15 ball
- d) Sahna madaniyati va artistizm – 15 ball
- e) Jonli ijro talablari va reglamentga rioya qilish – 15 ball
- f) Repertuar tanlovi va asarning murakkabligi – 10 ball

#### **8.4. Xoreografiya yo‘nalishida baholash mezonlari (100 ball):**

- a) Texnik mahorat (harakatlar aniq bajarilishi, muvozanat) – 25 ball
- b) Badiiy ifodaviylik va sahna obrazini ochib berish – 20 ball
- c) Harakatlarning musiqiy ifodaliligi va plastikligi – 20 ball
- d) Kostyum va sahnaviy ko‘rinishning uyg‘unligi – 15 ball
- e) Iste‘dod va ijodiy yondashuv – 10 ball
- f) Reglamentga rioya qilish va sahna madaniyati – 10 ball

#### **8.5. Tasviriy va amaliy san‘at yo‘nalishida baholash mezonlari (100 ball):**

- a) Ijro texnikasi va ijodiy mahorat – 30 ball
- b) Mavzuni ochib berish va asarning badiiy qimmati – 25 ball
- c) Rang va shakllardan foydalanish, kompozitsiya uyg‘unligi – 20 ball
- d) Ijodiy yondashuv va innovatsion elementlar – 15 ball
- e) Vaqtga rioya qilish va jarayonni boshqarish – 10 ball

#### **8.6. Teatr aktyorligi yo‘nalishida baholash mezonlari (100 ball):**

- a) Rolda ijro mahorati va xarakterni ochib berish – 30 ball
- b) Ovoz va nutq madaniyati (intonatsiya, talaffuz, ifodalilik) – 20 ball
- c) Harakat va mimika mosligi – 15 ball
- d) Sahnaviy chiqish va artistizm – 15 ball
- e) Ijodiy yondashuv va rol tanlovi – 10 ball



f) Reglament va sahna madaniyati – 10 ball

**8.7. Musiqa nazariyasi yo‘nalishida baholash mezonlari (100 ball):**

- a) Nazariy bilimlar darajasi (notalar, solfedjio, garmoniya) – 30 ball
- b) Musiqiy eshitish qobiliyati – 20 ball
- c) Ijodiy tahlil va musiqaviy adabiyot bo‘yicha bilimlar – 20 ball
- d) Notaga to‘g‘ri yozish va yozma ishlarda aniqlik – 15 ball
- e) Reglamentga rioya qilish va materialni tushuntirish uslubi – 15 ball

**8.8. Folklor ijrochiligi yo‘nalishida baholash mezonlari (100 ball):**

- a) Folklor uslubiga mos ijro texnikasi va ovoz nazorati – 30 ball
- b) Ezgulik va xalqona ruhni ifodalash – 20 ball
- c) Musiqiy bezaklar va ijro an‘analari – 20 ball
- d) Sahnaviy madaniyat va kiyinish uslubi – 15 ball
- f) Reglamentga rioya qilish va chiqishning umumiy saviyasi – 15 ball

**9-bob. Tanlov g‘olib va sovrindorlarini hamda ishtirokchilarni rag‘batlantirish**

9.1. G‘olib va sovrindorlar hamda ishtirokchilar quyidagicha rag‘batlantiriladi:

- a) barcha ishtirokchilarga diplomlar;
- b) ishtirokchilarning o‘qituvchi va jo‘rnavozlariga tashakkurnomalar;
- c) 1-2-3-o‘rin sovrindorlariga medallar;
- d) Gran Pri sohiblariga 100 \$ (yuz AQSH dollari) miqdorida pul mukofoti. Tanlovning maxsus statuetskasi, tegishli Gran Pri sertifikatini taqdim etiladi. *(guruh Gran Pri olgan taqdirda umumiy hisobda 100 \$).*

***Izoh:*** *Guruhli ishtirokchilar g‘oliblikni qo‘lga kiritganda umumiy jamoa uchun maxsus statuетка va diplom, jamoaning har bir a‘zosiga alohida diplom va medallar taqdim etiladi.*





9.2. Tanlov ishtirokchilari orasidan (g'olib va sovrindorlar bundan mustasno) qo'shimcha ravishda quyidagi maxsus nominatsiyalarga munosib deb topilgan qatnashchilar aniqlanadi:

1. “Eng yaxshi cholg‘u ijrochisi” (cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida)
2. “Eng yaxshi ovoz sohibi” (xonandalik yo‘nalishida)
3. “Eng yaxshi ansambl ijrosi” (guruh)
4. “Eng ijodkor ishtirokchi” (tasviriy va amaliy san‘at yo‘nalishi)
5. “Eng jozibador raqs ijrochisi” (xoreografiya yo‘nalishida)
6. “Musiqqa bilimdoni” (nazariya yo‘nalishida)
7. “Eng mohir aktyor (aktrisa yoki jamoa)” (teatr yo‘nalishi )

Yuqoridagi nominatsiya sovrindorlariga “ARTNOVA” xalqaro tashkiloti tomonidan O‘zbekiston hududida o‘tkaziladigan loyihalarda bir martalik bepul ishtirok etish uchun maxsus sertifikat beriladi.

9.3. Tanlovning g'olib va sovrindorlari “ARTNOVA” xalqaro tashkilotining iqtidorli yoshlar ro‘yxatiga kiritiladi, Respublika darajasida tashkil etiladigan konsert dasturlarida ishtirok etadi. Shuningdek, tashkilotning xalqaro loyihalariga jalb etiladi.

9.4. Tanlov g'oliblari orasidan eng ko‘p o‘quvchisi aniqlangan pedagog - **“Eng yaxshi pedagog”**, ta‘lim muassasasi rahbari esa **“Yangi O‘zbekiston tayanchi”** maxsus nominatsiyalari hamda tashkiliy guruhning maxsus sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

## **10-bob. Tanlov tashkilotchilari**

10.1. Tanlov “ARTNOVA” xalqaro tashkiloti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, hududiy hokimiyatlar, Barkamol avlod bolalar maktablari hamda boshqa tashkilot va muassasalar hamkorligida tashkil etiladi.

10.2. Hamkor tashkilotlar tanlovni tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan hamkorlik qiladi, javobgarlik va majburiyat olmaydi, barcha tashkiliy masalalar “ARTNOVA” xalqaro tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.



## **11-bob. Tanlovda ishtirok etish**

11.1. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza topshirish (anketa to'ldirish) orqali ishtirokchi (jamo) tanlovning barcha shartlarini qabul qiladi.

11.2. Ariza belgilangan tartibda elektron shaklda to'ldirilib, so'ralgan barcha hujjatlar va materiallar telegram orqali ko'rsatilgan manzilga (ilova qilinadi) jo'natiladi.

11.3. Tashkiliy qo'mita mas'ul xodimi yozma tasdiqlagandan keyingina ariza qabul qilingan hisoblanadi.

11.4. Ariza qabul qilinganidan keyin, hujjatlarga va ishtirok uchun taqdim etilgan materiallarga o'zgartirish kiritilishi va almashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

11.5. Ariza qabul qilinganidan keyin, ishtirokchi o'z xohishiga ko'ra tanlovda ishtirok etishdan bosh tortgan taqdirda, shuningdek, tanlov natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda ishtirok uchun undirilgan mablag' qaytarilmaydi.

11.6. Arizalarni qabul qilish vaqti belgilangan muddatidan oldin yopilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Bunday hollarda tashkiliy qo'mita tomonidan kamida 1 kun oldin e'lon beriladi.

11.7. Tashkiliy qo'mita tanlov bilan bog'liq barcha foto va video materiallardan, shuningdek, ishtirokchilar haqidagi axborot materiallaridan O'zbekiston hududida va undan tashqarida tijorat-reklama maqsadlarida bepul foydalanishga, ijtimoiy tarmoqlar va OAV orqali yoritishga haqli.

11.8. Tanlovda ishtirok etish uchun to'lov undiriladi. To'lov miqdorlari quyida (13-bob) ko'rsatiladi. Tanlov dasturi tashkilotning rasmiy veb sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalariga joylashtiriladi.

## **12-bob. Tanlovni moliyalashtirish**

12.1. Tanlovning tashkiliy masalalari ishtirokchilar tomonidan (ishtirok uchun) to'lanadigan badal to'lovi hisobidan, homiylik mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

12.2. Badal to'lovi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) Gran Pri sovrindorlari uchun pul mukofotlari, statuetka, sertifikat
- b) ishtirokchilar uchun diplom va tashakkurnomalar
- c) 1-2-3-o'rin sovrindorlari uchun medallar
- d) nominatsiya g'oliblariga sertifikat
- e) barcha ishtirokchilarga sovg'alar



12.3. Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq safar sarf-xarajatlari yuboruvchi tashkilot (ta'lim muassasalari) hamda homiylik mablag'lari hisobidan qoplanadi.

### **13-bob. Tanlovda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish (ariza topshirish)**

#### **13.1. Tanlovda ishtirok etish uchun to'lov miqdorlari quyidagicha:**

Yakka ishtirokchilar uchun	400 000 so'm
Duet va triolar uchun	350 000 so'm (har bir ishtirokchi uchun)
Kichik guruh va ansambllar (4-7 nafardan iborat)	300 000 so'm (har bir ishtirokchi uchun)
Katta guruh va ansambllar (8 nafar va undan ko'p)	250 000 so'm (har bir ishtirokchi uchun)
<i>*Kam ta'minlangan oila farzandlari, chin yetim va nogironligi bor ishtirokchilar uchun</i>	50 % chegirma qo'llaniladi
<i>**Bir ishtirokchi ikki va undan ortiq nominatsiya (yoki yo'nalish)da ishtirok etganda, ikkinchi yo'nalishdan boshlab</i>	50 % chegirma qo'llaniladi

*\*Kam ta'minlangan oila farzandlari, chin yetim va nogironligi bor ishtirokchilar ro'yxatdan otish jarayonida tasdiqlovchi hujjat ilova qilingan taqdirda imtiyozdan foydalana oladi.*

*\*\* Misol: Aliyev Vali Xalq cholg'ulari (doira) cholg'usida oldin ro'yxatdan o'tgan. Endi An'anaviy cholg'u ijrochiligi (Qashqar rubobi) cholg'usida ham ro'yxatdan o'tmoqchi. Shunday holatda, ikkinchi (va undan keyingi) marta ro'yxatdan o'tganida imtiyozdan foydalanadi.*

#### **13.2. Tanlovda ishtirok etish uchun to'lovni o'tkazish:**

*"ARTNOVA" xalqaro tashkiloti hisob raqami:*

X/R: 20208000007186567001

INN: 311826627

MFO: 01088

Plastik karta: *(Ravshanbek Irniyazov)*



**9860 1001 2514 0861**

*To'lovni o'tkazishda izoh quyidagicha yoziladi:*

*Ishtirokchining Ismi Familiyasi, "Ijod bahori"*

### 13.3. Anketa to'ldirish

Ishtirok etish uchun anketalar (ariza) elektron shaklda, lotin alifbosida to'ldiriladi. **Quyidagi havola orqali kiring, yoki QR kodni skanerlang**

**Yakka ishtirok uchun:**



**QR kodni skanerlang**

**Guruh uchun:**



**QR kodni skanerlang**

Ariza va anketani to'ldirish uchun tashkiliy qo'mitaning telegramdagi rasmiy sahifasi orqali linkni oling:

**Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hamkorlar:**



MADANIYAT VAZIRLIGI



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI



YOSHLAR ISHLARI  
AGENTLIGI



TOSHKENT SHAHAR  
HOKIMLIGI



O'ZBEKISTON  
BADIY AKADEMIYASI

*Shuningdek, televideniye hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilanadi.*

**Tashkiliy qo'mita bilan bog'lanish uchun:**

Mas'ul xodim: Ravshanbek Irniyazov

Telefon: +99897-965-80-80

Telegram: @artnova\_uz

@artnovauz\_bot



@ARTNOVA\_UZ



“ARTNOVA” xalqaro tashkiloti, “Ijod bahori” respublika yosh ijodkorlar tanlovi Nizomi